

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси  
Давлат тест маркази

## АХБОРОТНОМА

2019

№ 2

Тошкент

## «АХБОРОТНОМА»

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар  
Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест  
маркази  
илмий-услубий журнали.  
Бир йилда 4 марта чиқади.  
Ўзбекистон Матбуот ва ахборот  
агентлигида 2007 йил 19 апрелда  
кайта рўйхатдан ўтказилган.  
Гувоҳнома № 0247

Таъсисчи:  
Давлат тест маркази

Таҳририят ҳайъати:  
Закирова Махпиза  
(бош муҳаррир)  
Гулямов Суръат  
Мухаммадиев Муродулла  
Каримов Маджит  
Содиқов Қосимжон  
Ибрагимов Абдуғофур  
Бобоев Орзикул  
(бош муҳаррир ўринбосари)  
Қаюмов Абдухалил  
Мирвалиев Зоид  
(масъул котиб)

Босишга рухсат этилди: 26.06.2019  
Шартли босма табоғи: 6,0  
Нашриёт ҳисоб табоғи: 5,8  
Адади 100. Буюртма № 2-А-19

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар  
Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест  
маркази босмаҳонасида чоп этилди.

Нашрга тайёрловчилар:  
М. Закирова, З.Мирвалиев

Компьютерда саҳифаловчи:  
О. Бобоев

Таҳририят манзили:

100084, Тошкент шаҳри,  
Боғишамол кўчаси, 12- уй.

© «Ахборотнома»

## МУНДАРИЖА

Кириш.....	3
<b>М.Закирова.</b> Тестлар сифатини илмий асослаш жараёнидан ўтказиш.....	4
<b>Z.Zuparxodjayeva, N.Ziyoviddinov, J.Yusupov.</b> Aprobatsion test natijalari tahlili.....	20
<b>B.Rahimova, M.T.Umaraliyeva.</b> Ochiq test topshiriqlari o`quvchilarning mantiqiy fikrlash ko`nikmalarini rivojlantirish omili .....	48
Oliy ta'lim muassasalari kesimida abituriyentlar sonining to'plangan ballar bo'yicha taqsimlanishi.....	53
2019 йилда умумтаълим фанлари олимпиадасининг республика босқичида қўлланилган инглиз, немис ва француз тиллари бўйича тест топшириқлари.....	80

## КИРИШ

“Ахборотнома” илмий-услубий журналининг мазкур сонида Давлат тест маркази ходимлари томонидан ўрганилган, олиб борилган таҳлиллар ва тажрибалар натижасида тайёрланган бир неча мақолалар берилган.

Хусусан, биринчи мақола тест хусусиятларининг сифатини ташҳислаш, топшириқларга қўйилган асосий талабларни ифодаловчи кўрсаткичларни баҳолаш ва таҳлил қилиш, тест топшириқларининг ишончилиги, валидлиги, ҳақиқий қийинлик даражаси, дистракторлари, дискриминативлиги, гомогенлик хоссаси, тест балларининг вариацияси орқали тест топширувчиларнинг тайёргарлик даражасини аниқлаш, биладиганларни билмайдигандан ажратиш кабилардан иборат бўлиб, улар тадқиқ этилган ва ташҳисланган.

Шунингдек, ушбу сонда янги тест топшириқларини апробациядан ўтказиш натижалари таҳлиliga кўра фанлар кесимида тест топширувчиларнинг тест топшириқларига тўғри жавоб берганлик улуши, мураккаблик даражалари бўйича тақсимооти ҳамда мураккаблик даражалари бўйича тўғри жавоб берганларнинг улушлари графиклар, жадваллар асосида кўрсаткичлари берилган.

Булардан ташқари, очиқ тест топшириқлари, уларнинг ўқувчилар фикрлаши, айниқса мантиқий фикрлаш қобилиятининг ошишида ижобий ўрни, бундай тур ва шаклдаги тест топшириқларининг ўзига хос ижобий ва салбий жиҳатлари кўрсатиб ўтилган.

Ушбу сонда 2018/2019 ўқув йилида бакалаврият таълим йўналишларига талабалikka қабул қилиш учун ўтказилган тест синовлари ва унинг натижалари ҳақидаги таҳлилий маълумотларнинг давоми сифатида 2018 йилда Республика олий таълим муассасаларидаги таълим йўналишлари бўйича ўртача, максимал ва ўтиш баллари, олий таълим муассасалари ва таълим йўналишлари кесимида абитуриентлар сонининг тўпланган баллар бўйича тақсимланиши, ҳарбий имтиёзга эга бўлган абитуриентларнинг тайёргарлик даражалари таҳлили, академик лицей ва касб-ҳунар коллежлари битирувчиларининг тест синовларига тайёргарлик даражалари таҳлили берилган.

Журнал саҳифасидан умумтаълим фанлари олимпиадасининг республика босқичида ўтказилган тест синовларида инглиз, немис ва француз тиллари бўйича ишлатилган тест топшириқлари ҳам ўрин олган.

Журналнинг ушбу сони таълим соҳасида фаолият олиб бораётган барча мутахассислар, педагоглар, шунингдек, абитуриентлар, ота-оналар ҳамда кенг жамоатчилик учун мўлжалланган.

## Тестлар сифатини илмий асослаш жараёнидан ўтказиш

М.Закирова  
бўлими бошлиғи

Тест синовларида қўлланиладиган тест топшириқларини тестология талаблари асосида такомиллаштириш борасида Давлат тест маркази томонидан хорижий тажрибани ўрганган ва татбиқ этган ҳолда илмий-амалий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда.

Тестология ва педагогик ўлчовларнинг назарий асосларига кўра ҳар бир ўқув фани бўйича тузилган тест топшириқлари мазмуни эксперт текширувидан ўтказилгандан кейинги босқичда синалувчиларнинг репрезентатив (ваколатли) танланмасида апробациядан ўтказилади, унинг натижалари асосида тест хусусиятларининг сифати ташҳисланади [1].

Тест хусусиятларининг сифатини ташҳислаш тест топшириқларига қўйилган асосий талабларни ифодаловчи кўрсаткичларни баҳолаш ва таҳлил қилиш орқали амалга оширилади. Бу ўз навбатида тест баллари аниқлигини оширишга, натижада топшириқлар характеристикасини яхшилашга хизмат қилади.

Шу мақсадда яратилаётган тестлар сифати илмий асослаш жараёнидан ўтказилади. Бу жараён классик ёки замонавий тест назариясида математик-статистика аппаратида асосланади.

Мутахассислар томонидан бу икки назариянинг амалда ўзаро таъсирда бўлиши ва икки босқичда амалга оширилиши эътироф этилган [1]:

- биринчи босқичда дастлаб тузилган тест топшириқлари экспертизадан сўнг апробациядан ўтказиш натижалари асосида классик назарияга асосланган математик-статистик усуллар билан таҳлил қилинади;

- иккинчи босқичда, топшириқларни чуқур таҳлил қилиш жараёнида, тест топшириқлари параметрларини холис баҳолаш учун ИРТ аппаратини жалб этиш зарур.

Умумтаълим фанларидан тузилган, қабул жараёнларида фойдаланиладиган, тест топшириқлари синалувчиларнинг репрезентатив (ваколатли) танланмасида апробациядан ўтказилиб, унинг натижалари асосида математик-статистик усуллар билан таҳлил қилинди ва тест хусусиятларининг сифати ташҳисланди.

Тест хусусиятларининг сифатини ташҳислаш тест топшириқларига қўйилган асосий талабларни ифодаловчи кўрсаткичларни баҳолаш ва таҳлил қилиш орқали амалга оширилди. Бундай кўрсаткичлар: тест топшириқларининг **ишончлилиги** (ташҳисловчи ўлчовларнинг аниқлигини, шунингдек тест натижаларининг бегона тасодифий омиллар таъсирига нисбатан барқарорлиги), **валидлиги** (топшириқдан тест сифатида фойдаланиш эҳтимоллиги; топшириқнинг мақсадга мувофиқлиги), **ҳақиқий қийинлик даражаси**, **дистракторлари** (чалғитувчи муқобил жавоблар), шунингдек, тест топшириқларининг **дискриминативлиги** (турлича билим, қобилият даражаларига эга бўлган синалувчи шахсларни фарқлаш), топшириқлар

мазмунининг **гомогенлик** (аниқ бир фан бўйича тайёргарлик даражасини текширишга йўналтирилганлик) хоссаси, шунингдек, тест баллари (ёки тўғри жавоблар)нинг вариацияси орқали тест топширувчиларнинг **тайёргарлик даражасини** аниқлаш, биладиганларни билмайдигандан ажратиш кабилардан иборат бўлиб, улар тадқиқ этилди ва ташҳисланди.

Статистик таҳлил асосида фанлардан тест синови балларининг ўрта қиймати, медианаси, модаси, стандарт хатоси, дисперцияси, вариация кенглиги, максимум, минимум қийматлари аниқланди ва тест синови балларининг тақсимоти тузилди ва талқин қилинди.

Апробация тест синовлари натижалари бўйича маълумотларни математик-статистик қайта ишлаш махсус SPSS («Statistical Package for the Social Sciences») ижтимоий фанлар учун статистик дастури ёрдамида амалга оширилди.

Ушбу мақолада айрим асосий кўрсаткичлар бўйича тест топшириқлари сифатини ташҳислаш жараёнини ёритишга ҳаракат қилинди.

Шуни қайд этиш керакки, тест топшириқларининг ишончлилиги ва валидлигини баҳолаш тест синовларининг мақсадига боғлиқ. Асосан икки мақсадга қаратилган (мўлжалланган) тестлар бўлади: норматив-мўлжалли тест (билим даражасини баҳолаш (аниқлаш) тести) ёки критериал-мўлжалли тест. Қуйида уларга изоҳ бериб ўтамиз [2,6]:

Норматив-мўлжалли тест - ўқувчининг ўзлаштиришини меъёрлар билан таққослашга мўлжалланган тестдир. Яъни, маълум синалувчининг эришган даражасини бошқалар эришган даражага нисбатан баҳоловчи тест. Норматив-мўлжалли тест натижалари тест бали сифатида қаралади.

Критериал-мўлжалли тест – 1) синалувчи томонидан ўзлаштирилган ўқув материали қисмини ўлчаш, баҳолаш учун мўлжалланган тест; 2) синалувчи айни пайтда муайян мезонга мувофиқ келадими-йўқми, масалан, маълум бир билим, маҳорат даражасига эришганми-йўқми, талаб қилинган малакаларни эгаллаганми-йўқми кабиларни аниқлаш учун мўлжалланган тест. Критериал-мўлжалли тест натижалари синалувчининг бирламчи бали сифатида қаралади.

Критериал-мўлжалли тест ҳам норматив тестдагидек, ёки аксинча, норматив-мўлжалли тест ҳам критериал-мўлжалли тестдагидек топшириқларни қамраб олиши мумкин, булардаги фарқ натижаларни талқин қилиш, изоҳлашдадир.

Давлат тест маркази таълим муассасаларига қабул учун ўтказадиган тестлар норматив-мўлжалли тестлар ҳисобланади.

Норматив-мўлжалли тестларнинг ишончлилигини баҳолаш турлича усуллар билан ўтказилади. Уларни амалга ошириш услублари бўйича 2 гуруҳга бўлиш мумкин [2]. Биринчи усул икки марта тест синовини ўтказишга асосланган бўлиб, бунда айнан 1 та тест яна қайта ёки икки параллел шакл ёрдамида ўтказилади. Тестнинг ишончлилигини баҳолашнинг иккинчи усули бир марта ўтказиладиган тест синовиге асосланган.

Тадқиқотларимизда амалиётда кўп қўлланиладиган иккинчи гуруҳга кирувчи усулдан фойдаландик.

Бир марталик тест синовларида синалувчилар томонидан топшириқларни бажариш натижалари дихоматик (тест бўйича маълумотлар матрицаси 0 ва 1 лардан иборат) шкалада берилганда тестнинг **ишончилигини баҳолаш** учун Кьюдер-Ричардсон-20 (KR-20) усулига асосланган Альфа моделларидан фойдаланилади. Кьюдер-Ричардсон-20 (KR-20) усулига кўра тест ишончилиги коэффиценти  $r_u$  қуйидаги формула билан ҳисобланади [1,2]:

$$(r_u)_{KR-20} = \frac{n}{n-1} \left( 1 - \frac{\sum_{j=1}^n p_j q_j}{S_x^2} \right). \quad (1)$$

Бунда  $p_j$  –  $j$ -топшириқни тўғри ечганлар улуши,  $q_j$  –  $j$ -топшириқни нотўғри ечганлар улуши,  $q_j = 1 - p_j$ ;  $S_x$  —индивидуал баллар тақсимотининг дисперсияси;  $n$  – тест топшириқлари сони.

Тест ишончилигининг йўл қўйилиши мумкин бўлган қуйи чегараси сифатида, одатда, 0,7 танланади. Юқори сифатли тестларда ишончилик коэффиценти қиймати 0,9 дан юқори бўлади. Тестология амалиётида одатда тест ишончилиги (0,8; 0,9) оралиғида бўлади [1,2].

*Бисериаль корреляция коэффицентини* ҳисоблаш ёрдамида алоҳида тест топшириқларини **валидлигини** баҳолаш мумкин бўлади. Бисериаль корреляция коэффиценти тақсимотнинг бир тўплам маълумотлари дихоматик шкалада, бошқаси – интервал шкалада берилганида ишлатилади. Бу ҳолатга ҳар бир топшириқни ечиш натижалари (дихотомик шкала) билан тест топшириқлари бўйича синалувчиларнинг баллари йиғиндиси (интервал ёки квазиинтервал шкала) орасидаги корреляцияни ҳисоблаш мисол бўлади.

Бисериаль корреляция коэффицентини ҳисоблаш формуласи [3] ва бошқа бир қатор нашрларда келтирилган бўлиб, у қуйидаги кўринишга эга:

$$(r_{\text{bis}})_j = \frac{(\bar{X}_1)_j - (\bar{X}_0)_j}{S_x} \frac{(N_1)_j - (N_0)_j}{uN\sqrt{N^2 - N}}, \quad (2)$$

бунда  $(\bar{X}_1)_j$  —  $j$ - тест топшириғини тўғри ечган тест топширувчилар балларининг ўрта қиймати;  $(\bar{X}_0)_j$  —  $j$ - тест топшириғини нотўғри ечган тест топширувчилар балларининг ўрта қиймати;  $S_x$  —индивидуаль баллар қийматлари тўпламининг стандарт тафовути;  $(N_1)_j$  —  $j$ - тест топшириғини тўғри ечган тест топширувчилар сони;  $(N_0)_j$  —  $j$ - тест топшириғини нотўғри ечган тест топширувчилар сони;  $N$  — тест топширувчиларнинг умумий сони,  $N = N_1 + N_0$ .  $u$  – нормаллашган нормал тақсимотдаги шундай нуқтанинг ординатасики, унинг ортидаги нормал чизиғи остида  $100(N_1/N)$  фоизга тенг юза ётади.

(2) формула билан ҳисоблаш махсус жадваллардан фойдаланиб, стандарт нормал чизигининг ординаталарини топишни ва маълум математик тайёргарликни талаб қилади. Шунинг учун, кўпинча бошқа, *нуқтавий бисериал коэффицент*  $r_{pbis}$  деб номланувчи корреляция коэффицентидан фойдаланилади. Нуқтавий бисериал ҳам бисериал коэффицентлар жуда ўхшаш ва ўхшаш маълумотлар тўплами бўйича ҳисобланади. Аммо  $r_{pbis}$  учун формула бирмунча оддий, шунинг учун амалда кўпинча ундан фойдаланилади. Нуқтавий бисериал коэффиценти бисериалга нисбатан яна битта муҳим афзалликка ҳам эга.  $r_{pbis}$  қийматини ҳисоблаш формуласи талаб этиладиган дихоматик маълумотларнинг нормал тақсимланиш характериға эга бўлиши кераклиги ҳақида илгари суриладиган гипотезалар керак эмас.

Нуқтавий бисериаль корреляция коэффиценти  $r_{pbis}$  куйидаги формула билан ҳисобланади [1]:

$$(r_{pbis}) = \frac{(\bar{X}_1)_j - (\bar{X}_0)_j}{S_x} \sqrt{\frac{(N_1)_j \cdot (N_0)_j}{N(N-1)}}, \quad (3)$$

бунда белгилашлар (2) формула билан бир хил.

Ҳар бир топширикқа берилган жавобларнинг умумий тест бали билан корреляцияси орқали бисериаль корреляция коэффиценти  $r_{bis}$ ни махсус дастур ёрдамида ҳисоблаш мумкин.

Топширик валидлигини баҳолашда (3) формуланинг каср суръатидаги  $(\bar{X}_1)_j - (\bar{X}_0)_j$  айирма муҳим рол ўйнайди. Бу айирманинг қиймати қанча катта бўлса, топширик синалувчиларни фарқлаш бўйича умумий мақсадга шунчалик яхши хизмат қилади. Нолга яқин қийматлар тест топширигининг дифференциациялаш қобилияти пастлигини кўрсатади. Бунда, яъни, айирмада  $(\bar{X}_1)_j$  ни эмас, балки  $(\bar{X}_0)_j$  нинг ҳиссаси юқори бўлганда, топширикни тестдан чиқариб ташлаш керак. Унда кучсиз синалувчилар устун бўлиб, кучлилар тестни ечишда нотўғри жавобни танлайдилар ёки ечмасдан ўтказиб юборадилар. Шундай қилиб, бисериаль корреляция коэффицентлари манфий (яъни,  $r_{bis} < 0$ ) бўлган барча топшириклар чиқариб ташланади [1].

Умуман олганда, бисериаль корреляция коэффиценти 0.5 ва ундан катта бўлган топширик валид ҳисобланади. Бисериаль корреляция коэффиценти манфий (яъни,  $r_{bis} < 0$ ) бўлган барча топшириклар чиқариб ташланади.

Уларда билмайдиганлар ғолиб бўлиб, биладиганлар тестни ечишда нотўғри жавобни танлайдилар ёки уларни ўтказиб юборадилар.

Тест сифатини чуқур таҳлил қилиш айрим топшириклар мазмунини тузатиш (яхшилаш) бўйича хулосалар қилишга имкон беради. Бундай таҳлил (алоҳида) тест топшириклари бўйича синалувчилар натижаларининг **ўзаро боғлиқлиги кўрсаткичини ҳисоблаш** билан боғлиқ. Бундай боғлиқликни баҳолаш учун Пирсон корреляция коэффиценти керак бўлади. Хусусан, топширикларни бажариш натижалари дихоматик (тест натижалари бўйича маълумотлар матрицаси 0 ва 1 лардан иборат) шкалада берилганда Пирсон

коэффициенти куйидаги формула билан ҳисобланади [1]:

$$\varphi_{jl} = \frac{P_{jl} - P_j P_l}{\sqrt{P_j q_j \cdot P_l q_l}}, \quad (4)$$

бунда  $p_{jl}$  –  $j$  ва  $l$  рақамли иккала топширикни ҳам тўғри ечган синалувчилар улуши, яъни иккала топширик бўйича ҳам 1 балл олганлар улуши;  $p_j$  –  $j$ - топширикни тўғри ечганлар улуши,  $q_j = 1 - p_j$ ;  $p_l$  –  $l$ - топширикни тўғри ечганлар улуши,  $q_l = 1 - p_l$ .

Жуфт корреляция ёрдамида тестни ташкил этувчи топширикнинг **гомогенлик даражаси** ҳақида тасаввурга эга бўлиш мумкин. Агар қайсидир топширик бошқа топшириқлар билан манфий корреляцияда бўлса, у ҳолда унинг гомогенлиги бўйича асосли шубҳалар юзага келади. Аксинча, корреляциянинг аҳамиятли, юқори баҳолари тест топшириғи мазмунининг бир хиллиги юқори эканлигини кўрсатади.

Барча топшириқлар орасидаги корреляция коэффициентлари қийматларининг таҳлили айрим топшириқларни “ёмон” тестлар тоифасига киришини кўрсатиши мумкин. Буни бошқа топшириқлар билан манфий корреляцияда бўлган “айбдор” тест топшириғини аниқлаш билан амалга оширилади. Бунинг учун Пирсон корреляция коэффициентлари жадвали тузилиб, устунлардаги корреляция коэффициентлари қийматлари таҳлил қилинади. Корреляция коэффициентларининг манфий қийматлари тест тузувчилар топшириқ мазмунида маълум камчиликларга йўл қўйганлигини кўрсатади. Бундай топшириқларни тестдан чиқариб ташлаш тавсия этилади. Мутахассислар манфий корреляциянинг юзага келишининг энг кўп тарқалган сабабларидан бири – тест мазмунининг фан бўйича “тоза” бўлмаслиги деб ҳисоблайдилар [1,2]. Масалан, физика бўйича тестларда ҳар доим катта сондаги математик ўзгартиришлар бажариладиган топшириқлар, биология бўйича тестда кимё бўйича жиддий билим талаб қилинадиган топшириқлар, тарих бўйича маданиятшуносликка оид билимларни аниқлашга қаратилган топшириқлар учрайди ва бошқ. Шунинг учун ҳар бир топширикни тузишда фақатгина текширилаётган фан бўйича билимлари устун бўлишига интилиш тавсия этилади.

Юқори **дискриминативлик** - яхши тест топшириғининг муҳим характеристикаларидан бири ҳисобланади [1,3].

Агар норматив-мўлжалли тестларни тузишнинг асосий мақсади дифференциациялаш самарасига эришиш эканлиги эсланса, бу тасдиқ тўлиқ тушунарли бўлади. Шунинг учун яхши норматив-мўлжалли тест юқори дискриминатив қобилиятли топшириқлардан тузилган бўлиши керак.

Албатта, дискриминативлик норматив-мўлжалли тестдаги топшириқлар сифатининг ягона кўрсаткичи эмас. Умуман олганда, дифференциялаш самараси кўп ташкил этувчиларга боғлиқ бўлади: топшириқлар орасидаги корреляцияга, топшириқлар сони ва бошқа характеристикаларга боғлиқ бўлади.



Улар орасида энг муҳим ўрин барибир ҳар бир тест топшириғининг дискриминативлиги кўрсаткичига берилади. .

Дискриминативликни баҳолаш учун турлича формулалар қўлланилади.

Юқорида келтирилган ( $r_{pbis}$ ) бисериал корреляция коэффициентини ҳисоблаш формулалари ёрдамида топшириқнинг дискриминативлик қобилияти тўғрисида кўпроқ аниқ тасаввурга эга бўлиш мумкин. Шунингдек, қуйидаги бошқа, бир-бирига яқин қиймат берувчи, формулаларни ҳам қўллаш мумкин:

$$(r_{pbis})_j = \frac{(\bar{X}_1)_j - \bar{X}}{S_x} \sqrt{\frac{p_j}{q_j}} \quad (5)$$

ёки

$$(r_{pbis})_j = \frac{(\bar{X}_1)_j - (\bar{X}_0)_j}{S_x} \sqrt{p_j q_j} . \quad (6)$$

Бунда,  $(r_{pbis})_j$  –  $j$  – топшириқ учун нуқтавий-бисериал корреляция коэффициенти,  $(\bar{X}_1)_j$  –  $j$ - тест топшириғини тўғри ечган ўқувчилар индивидуал балларининг ўрта қиймати;  $(\bar{X}_0)_j$  –  $j$ - тест топшириғини нотўғри ечган ўқувчилар индивидуал балларининг ўрта қиймати;  $\bar{X}$  – барча танлама бўйича ўқувчилар балларининг ўрта қиймати;  $S_x$  — индивидуал баллар тўплами бўйича стандарт тафовут.

(5) ва (6) формулалар орқали олинган натижаларни баҳолашдаги мантикий мушоҳада аввалгидек қолади, яъни, корреляция қанча катта бўлса, тест топшириғи шунча яхши бўлади. Нуқтавий-бисериал корреляция коэффициенти  $r_{pbis}$  0га яқин ва манфий қийматли бўлган топшириқлар тестдан чиқариб ташланиши керак.

Аммо тест тузишдаги реал ҳолатда шундай ҳодисалар ҳам учрайдики, топшириқ мазмуни тест тузувчи учун бағоят муваффақиятли бўлиб кўринсада, шу билан бир қаторда тест бўйича баллар йиғиндиси билан корреляцияси 0га яқин бўлади. Шунга кўра, топшириқларни тестга танлашда  $r_{pbis}$ нинг қиймати учун критик сонни танлаш масаласи юзага келади.

Кўпчилик мутахассисларнинг (L.Crocker, J. Algina, P.Kline ва бошқ. ) фикрича нуқтавий-бисериал корреляция коэффициентининг критик нуқтаси сифатида 0,2 қиймат қабул қилиш кераклиги айtilган [1,2,3]. Шунинг учун  $r_{pbis} < 0,2$  қийматли топшириқларни тестдан чиқариб ташлаш керак.


$r_{pbis}$ ни ўрнига ҳар бир топшириққа берилган жавобларнинг умумий тест бали билан корреляцияси орқали ҳисобланадиган бисериаль корреляция коэффициенти  $r_{bis}$ ни қўллаш мумкин. Уни тест топшириқлари бўйича айнан ўша маълумотлар учун, аввал қайд этилганидек, ҳисоблаш мураккаброқ. Тўғри,  $r_{bis}$ ни қиймати  $r_{pbis}$ га нисбатан бирмунча юқорироқ бўлгани сабабли  $r_{bis}$  учун критик сон 0,3 деб қабул қилиш керак. Шундай қилиб,  $r_{bis} < 0,3$  бўлган барча топшириқлар тестдан чиқариб ташланиши керак.

Классик назарияда **тест топшириқларининг қийинлик даражаси** қуйидаги формула ёрдамида баҳоланади:

$$p_j = R_j / N, (7)$$

бунда  $p_j$  -  $j$ - тест топшириғига берилган тўғри жавоблар ҳиссаси,  $R_j$  —  $j$ - топшириқни тўғри ечган тест топширувчилар сони,  $N$  — тест топширувчиларнинг умумий сони,  $j$  – тест топшириғининг рақами,  $j = 1, 2, \dots, n$ . Топшириқ қийинлигини кўпинча фоизларда ифодалашади, у ҳолда (3.8) формула билан олинган баҳолаш натижаси 100%га кўпайтирилади.


Классик назарияда юзага келган анъанага кўра топшириқнинг қийинлиги учун  $p_j$  ҳисса қабул қилинган. Қийинлиги бўйича топшириқларни тестга танлашни гистограмма ёрдамида баҳолаш қулай бўлади (1-расм).



1-расм. Қийинлиги бўйича яхши мувозанатлаштирилган норматив-мўлжалли тест гистограммаси.

Тўғри, яхши тузилган тест фақат осон ёки қийин топшириқлардан иборат бўлмайди. У турли қийинликдаги топшириқлардан иборат бўлади. Бу қонундан тест тузишнинг бошланғич босқичида ҳисобга олиш зарур ва бунда тест топшириқлари қийинлигини белгилашда тестолог ўзининг қарашларига эмас, балки эмпирик баҳолашгагина ишониб кераклиги мутахассислар томонидан қайд этилган [1,2].

Қийинлиги бўйича яхши мувозанатлаштирилган **норматив-мўлжалли** тестда бир неча  $p \rightarrow 0$  қийматли қийин топшириқлар бўлади. Шунингдек, бир неча  $p \rightarrow 1$  қийматли осон топшириқлар ҳам бўлади. Бошқа топшириқларнинг қийинлик кўрсаткичини ( $p$ ) қиймати ушбу чегаравий ҳолатлар оралиғида бўлиб, асосан 60—70% қийинликка эга бўлади. Шундай қилиб, қийинлиги бўйича топшириқларнинг асосий қисми тақсимотнинг ўртасига яқинлашган бўлиб, 2- расмдагидек нормал қонунни акс эттиради.



2-расм. Тест топшириқларининг қийинлиги бўйича типик тақсимоти.

$p_j = 0,5$  бўлган ўртача қийинликдаги топшириқларни тестга киритиш афзаллигини асословчи омиллардан яна бири ҳар бир тест топшириғи бўйича дисперсияни ҳисоблаш билан боғлиқ, яъни:

$$\sigma_j = p_j q_j, \quad (j = 1, 2, \dots, n). \quad (8)$$

$p_j q_j$  кўпайтма  $p_j = q_j = 0,5$  бўлганда максимал қийматга ( $0,5 \cdot 0,5 = 0,25$ ) эга бўлганлиги учун **норматив-мўлжалли** ёндашув доирасида тестнинг умумий дисперсиясига максимал ҳисса қўшадиган, энг мақбул топшириқлар  $p = q = 0,5$  бўлган ўрта қийинликдаги топшириқлар ҳисобланади.

Ўртача қийинликдаги топшириқларни тестга кўпроқ киритиш фойдасига ўлчаш хатосини ҳисоблаш ҳам хизмат қилади. Хатолар ўрта қийинликдаги топшириқлар жойлашган марказ томон ҳаракатда камаяди, тақсимотнинг чеккаларида ортади.

Тест топшириғининг қийинлиги кўрсаткичини аниқлаш усулларида бири топшириқни эмпирик синовдан ўтказиб, тўғри жавоблар салмоғини аниқлашдан иборат. Синовчилар томонидан тест топшириғига берилган тўғри жавоблар салмоғи қанча юқори бўлса топшириқ шунча осон, аксинча, берилган тўғри жавоблар салмоғи қанча кам бўлса топшириқ шунча қийин бўлади.

Тестология ва педагогик ўлчовлар бўйича мавжуд илмий-услубий ишларни ўрганиш натижаси тест топшириғи қийинлигини баҳолаш учун турлича шкалалар танланиши мумкинлигини кўрсатди [5]. Шулардан, кўп ҳолларда қўлланиладиган априор (назарий) шкалалардан бирини эталон деб қаралди. Бунда  $W$  – тест синовида синалувчилар томонидан  $i$ -топшириққа берилган тўғри жавоблар салмоғи десак, фоизларнинг (100 фоиздан келиб чиқиб) 5 баллик шкала бўйича тақсимоти ва баҳолаш қуйидагича бўлиши мумкин:

1-жадвал

Тест синовии натижалари, $W$ (%да)	Баҳо	Қийинлиги
$0 \leq W \leq 25$	2 (қониқарсиз)	Қийин
$25 < W \leq 50$	3 (қониқарли)	Ўртача

$50 < W \leq 75$	4 (яхши)	қийинликда
$75 < W \leq 100$	5 (аъло)	Осон

Фанлар бўйича вариант топшириқлари учун назарий - эталон шкала бўйича қийинлик даражаси  $V_{es_{theor}}$  ва мутахассис-экспертлар томонидан дастлаб белгиланган қийинлик даражаси (3-қийин, 2-ўртача қийинликда, 1-осон)  $V_{es}$ нинг ўзаро таққослама жадваллари ишлаб чиқилди.

**Дистракторлар тўғри тузилганлигини баҳолаш** ҳар бир нотўғри жавобни танлаган синалувчилар салмоғини ҳисоблашга асосланган.

Амалиётдаги ҳақиқий натижалар тавсифланган гипотетик (тахминий), идеаллаштирилган ҳолатга камдан-кам мос келади. Уларни эмпирик текширув натижалари асосида ўзгартиришга тўғри келади.

Шундай қилиб, жавобни танлайдиган яхши топшириқларда нотўғри жавоб берган ўқувчилар берилган барча дистракторлар орасида деярли бир текис тақсимланишлари керак. 5%дан кам нотўғри жавоб берган синалувчилар танлаган дистракторларни тестдан чиқариб ташлаш керак [2,3].

Дистракторлар таҳлилининг чуқурлашган варианты тест топшириқларидаги ҳар бир дистрактор учун нуқтавий-бисериал корреляция коэффициентини ҳисоблашга асосланган. Коэффициент қийматларини ҳисоблаш формуласи юқорида келтирилган. Корреляция коэффициентининг манфий қийматлари тест топшириғини яхши ечган синалувчилар ушбу дистракторни тўғри жавоб сифатида танламасликларини билдиради.

Дистракторлар учун мусбат нуқтавий-бисериал корреляция коэффициентлари - бу нотўғри жавобларни тўғри жавоб сифатида кучли ўқувчилар танлаганлигини билдиради. Бу ўқитувчининг яхши тест топшириқлари ҳақидаги тасаввурига зид келади. Бундай топшириқларни, шубҳасиз таҳлил қилиш керак, ва, агар мазмунидаги камчиликни тузатиб бўлмаса, у ҳолда тестдан чиқариб ташлаш керак. Дистракторлар тўғри тузилган ҳолатларда уларнинг нуқтавий-бисериал корреляция коэффициентлари манфий ва модул бўйича қийматлари 0,2 дан катта бўлиши керак. Дистракторлар учун мусбат ва 0 га яқин корреляция коэффициентлари қийматлари ундай тестларни чиқариб ташлаш ёки нотўғри жавобларни тузатиш кераклигини билдиради.

Дистракторлардан фарқли равишда, яхши топшириқларда тўғри жавобларни кучли ўқувчилар танлайди. Шу боисдан тўғри жавоблилар жойидаги нуқтавий-бисериал корреляция коэффициенти қиймати манфий бўла олмайди. Тўғри жавобларга 0,5 дан юқори бўлган корреляция коэффициентлари қийматлари мос келиши керак. Кучли ўқувчилар тўғри жавобни танламаган ҳолда корреляция коэффициенти 0га яқин ёки 0дан кичик бўлади. Тўғри жавоб учун манфий ёки 0 қийматли корреляция коэффициенти ўқувчилар жавобларининг тасодифий характердалигини, ўқитишдаги камчиликлар сабабли материални ўзлаштиришда тизимли муаммолар мавжудлигини ёки тест топшириғи нотўғри тузилганлигини англатади.

Давлат тест марказининг буйруқлари билан тест топшириқлари базасини такомиллаштириш мақсадида олий таълим муассасалари бакалавриятига 2018-

2019 ва 2019-2020 ўқув йиллари Рус тили ва адабиёти, Инглиз тили, Немис тили, Француз тили, Она тили ва адабиёти, Тарих, Математика, Физика, Биология, Кимё ва Информатика фанлари бўйича қабул тест синовларида қўлланиладиган тест топшириқлари апробациядан ўтказилди. Апробация тест синовларида академик лицей ва ўрта таълим мактабининг битирувчи ўқувчилари қатнашди.


**Фанлар бўйича тест топшириқларини апробациядан ўтказиш натижалари юқорида келтирилган усуллар ёрдамида статистик таҳлил қилинди ва таҳлил маълумотлари асосида тест топшириқларини такомиллаштириш бўйича тегишли таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди [7].** Улар фан мутахассислари ва экспертлар томонидан ўрганилди, таҳлил қилинди ва тест топшириқларида тегишли ўзгартиришлар амалга оширилди.

Қуйида 2019-2020 ўқув йили қабул тест синовларида қўлланиладиган тест топшириқлари апробацияси натижалари асосида ўтказилган статистик таҳлил маълумотлари келтирилмоқда. Уларда фандан тест синови балларининг ўрта қиймати, медианаси, модаси, стандарт фарқланиш, дисперсияси, вариация кенглиги, максимум, минимум қийматлари ва тест синови балларининг тақсимоти (гистограммада нормал тақсимот билан) келтирилган. Шунингдек, **энг муҳим кўрсаткичлардан ишончлилик, валидлик таҳлили (alpha), дистракторлар** (чалғитувчи жавоблар) ва **қийинлик даражалари** бўйича ҳам таҳлил натижалари келтирилган.

### 1) Инглиз тили фани бўйича:

#### Статистика total

N	Қатнашган	240
	Жавоб бермаган	0
Ўрта қиймат		15,0542
Медиана		15,0000
Мода		13,00
Стандарт фарқланиш		5,27737
Дисперсия		27,851
Диапазон		26,00
Минимум		3,00
Максимум		29,00



Гистограммадан кўриниб турибдики, тест топшириқларининг индивидуал баллари тақсимоти нормал тақсимотдан биров фарқ қилади (мода– 13,0 ва ўрта қиймат -15,05 бир-бирига яқин эмас). 55,4% тест топширувчилар 15 балл ва ундан паст балл йиғганлар (медианадан пастда), 44,6% тест топширувчилар 15 баллдан юқори балл йиғганлар (медианадан юқорида). Кичик ҳажмдаги танловларда нормал тақсимот марказига ўрта қийматнинг яқинлиги тест вариантнинг тўғри тузилганлигини билдиради.

Инглиз тили варианты тест топшириқларининг **ишончлилик коэффиценти** Кронбах Alphaси 0,801га тенг бўлди.

Alphaning қиймати 0,7дан юқорилиги умуман олганда ушбу вариант тестларининг ишончлилигини кўрсатади.

Шу билан бирга, Инглиз тили фанининг вариантыдаги 15, 25 ва 28–тест топшириқларининг ҳар бири бўйича ишончлилик коэффиценти қийматларининг 0,25дан кичиклиги ушбу тест топшириқларининг ишончлилиги пастлигини кўрсатди. Бунда  $q_{15}$  топшириқнинг ишончлилик коэффиценти 0,090,  $q_{25}$  топшириқ учун ушбу коэффицент 0,030,  $q_{28}$  учун эса 0,039га тенг.

Бундай тест топшириқларини чиқариб ташлаш тавсия этилди. Назарияга кўра, ишончлилиги паст бўлган топшириқлар тест вариантыдан чиқариб ташланса, тест вариантынинг умумий ишончлилиги ортиши керак. Ушбу тестлар чиқариб ташланса, вариантынинг ишончлилик коэффиценти, Кронбах Alpha коэффиценти 0,801 дан, мос равишда, 0,808; 0,807 ва 0,805 гача ортади.

Бу тест топшириқларини тест тузувчи экспертлар кўриб чиқишлари ва таҳлил қилишлари керак бўлади.

Бундан ташқари,  $q_1$  ва  $q_2$  топшириқларнинг ишончлилик коэффицентлари, мос равишда, 0,223 ва 0,178 га тенг бўлиб, улар 0,25 дан кичик. Аммо ушбу тестлар чиқариб ташланса, Альфа 0,801дан ортмайди, яъни, улар чиқариб ташланса вариантынинг умумий ишончлилиги пасаяди ва иккаласи учун ҳам 0,799 тенг бўлади. Шунинг учун, бундай тест топшириқларини (келгуси таҳлилларда - айрим кўрсаткичлари бўйича талабга жавоб бермайдиган) чиқариб ташлашга эмас, балки қайта кўриб чиқишга тавсия этилди.

### **Тест топшириқларининг валидлиги бўйича:**

Бисериаль корреляция коэффицентини ҳисоблаш орқали валидлик баҳоланди. Ҳар бир топшириққа берилган жавобларнинг умумий тест бали билан корреляцияси - бисериаль корреляция коэффиценти ҳисобланди.

Инглиз тили фанидан бисериаль корреляция коэффиценти жуда паст бўлган топшириқлар айнан 15, 25 ва 28- рақамли тест топшириқларга тўғри келиб, уларда бу кўрсаткич -0,022, 0,046, 0,118 бўлган.

### **Дистракторлар таҳлили бўйича:**

Инглиз тили фанининг вариантыдаги 1-тест топшириғининг В, 2-тест топшириғининг В, С, D, 4-тест топшириғининг D, 5-тест топшириғининг С, 6-тест топшириғининг В, 10-тест топшириғининг С, 16-тест топшириғининг D, 21-тест топшириғининг D-жавобини ўзгартириш ёки тестдан чиқариб ташлаш керак. Чунки, бу жавобларни танлаганлар, мос равишда 1,3%, 2,1%, 4,98%, 3,7%, 3,3%, 4,6%, 4,98%, 4,2%, 4,6% ва 3,7% (5%дан кам) бўлиб, бу эса жавоблар мантиқан нотўғрилиги равшан эканлигини кўрсатади. Яъни, бу жавоблар дистрактор функциясини бажармаяпти. Бундай чалғитувчи жавобларини тестдан чиқариб ташлаш ва ўрнига бошқа дистрактор тузиш тавсия этилди.

Вариантнинг 5 та саволига (9-савол, калити Ага 20.3%, Вга 41,1%; 15-савол, калити Ага 15.4%, Вга 42,3%; 19-савол, калити Ага 28.64%, Dга 42,3%;

25-савол, калити Ага 20.3%, Вга 34,4%; 28-савол, калити Ага 22,8%, Сга 47,3%) берилган тўғри жавоблар фоизи айрим дистракторларга берилган жавоблар фоизидан кам бўлиб, бу тест топшириқларида юқори фоизли дистракторларга эътибор қаратиш кераклигини англатади.

**Тест топшириқларининг қийинлик даражасини аниқлаш бўйича:**

Тест топшириқлари базасига киритилган умумтаълим фанлари топшириқлари учун назарий -эталон шкала бўйича қийинлик даражаси  $Ves_{theor}$  аниқланди ва мутахассис-экспертлар томонидан дастлаб белгиланган қийинлик даражаси (3-қийин, 2-ўртача қийинликда, 1-осон) **Ves** билан ўзаро таққослама жадваллари ишлаб чиқилди.

N	Тўғри жавоб%	Ves	$Ves_{theor}$
1	51,03734	1	2
2	89,21162	1	1
3	81,3278	1	1
4	83,81743	1	1
5	78,0083	1	1
6	45,64315	1	2
7	55,18672	1	2
8	51,03734	2	2
9	20,33195	2	3
10	64,73029	2	2
11	36,09959	2	2
12	30,29046	2	2
13	34,0249	2	2
14	48,13278	2	2
15	15,3527	2	3
16	72,61411	2	2
17	72,61411	2	2
18	44,39834	2	2
19	28,63071	2	2
20	33,60996	2	2
21	79,25311	2	1
22	45,22822	2	2
23	54,35685	3	2
24	52,6971	3	2
25	20,33195	3	3
26	58,92116	3	2
27	56,43154	3	2
28	22,82158	3	3
29	47,71784	3	2
30	37,75934	3	2

Жадвалдаги маълумотлар (тўғри жавоб берганлар фоизи) таҳлили ушбу вариантда эксперт томонидан белгиланган 1-қийинликдаги 3 та (1-, 6-, 7-) топшириқ эталон шкалага асосан 2-қийинликдаги топшириқлар эканлигини, 2-қийинликдаги 2 та (9-, 15-) топшириқ 3-қийинликдаги топшириқлар

эканлигини, 1 та (21-) топшириқ 1-қийинликдаги топшириқ эканлигини, 3-қийинликдаги 6 та (23-, 24-, 26-, 27-, 29-30-) топшириқ 2-қийинликдаги топшириқлар эканлигини кўрсатди.

Рақамлари кўрсатилган тест топшириқлари қийинлик даражасини қайта кўриб чиқиш ва тегишли ўзгартиришларни амалга ошириш тавсия этилди.

**Бошқа фанлар бўйича худди шунингдек таҳлиллар амалга оширилди ва куйидаги натижалар олинди.**

**2) Биология фани бўйича:** Тест топшириқларининг индивидуал баллари тақсимоти нормал тақсимотга яқин (мода– 16,0, медиана – 14,0 ва ўрта қиймат - 14,5 бир-бирига яқинроқ). 53,7% тест топширувчилар 14 балл ва ундан паст балл йиғганлар (медианадан пастда), 46,3% тест топширувчилар 14 баллдан юқори йиғганлар (медианадан юқорида). Кичик ҳажмдаги танловларда нормал тақсимотнинг симметриклиги тест варианты тўғри тузилганлигини кўрсатади.

Тестнинг **ишончлилик коэффиценти** - Кронбах  $\alpha$  ҳаси 0,760га тенг бўлиб, ушбу вариант тестларининг **ишончлилигини** кўрсатди. Биология фани вариантыдаги 5, 6, 12, 23 ва 28– тест топшириқларининг ишончлилиги паст бўлиб, бундай тестларни чиқариб ташлаш тавсия этилди. Бундан ташқари, 4, 8, 9, 17, 24, 26 ва 27-рақамли топшириқларнинг ишончлилик коэффицентлари, мос равишда 0,240, 0,203, 0,178, 0,199, 0,209, 0,152 ва 0,199 га тенг бўлиб, ушбу тест топшириқлари чиқариб ташланса, Альфа 0,760дан ортмайди, балки вариантнинг умумий ишончлилиги мос равишда, 0,755, 0,758, 0,759, 0,758, 0,757, 0,759 ва 0,758 га пасаяди тенг бўлади. Шунинг учун, бундай тестларни чиқариб ташлашга эмас, балки қайта кўриб чиқишга тавсия этилди.

**Валидлик** бўйича: бисериаль корреляция коэффиценти жуда паст бўлган топшириқлар айнан 5, 6, 12, 23 ва 28- рақамли тест топшириқларга тўғри келиб, уларда бу кўрсаткич мос равишда 0,228, 0,084, 0,211, 0,180 ва 0,239 бўлган.

Вариантдаги 1-тест топшириғининг С, 4-тест топшириғининг D, 6-тест топшириғининг В, С, 11-тест топшириғининг D, 18- тест топшириғининг С, 25-тест топшириғининг С, 26-тест топшириғининг D ва 27-тест топшириғининг С-жавобини ўзгартириш ёки тестдан чиқариб ташлаш керак. Чунки, бу жавобни танлаганлар, мос равишда 4%, 4,8%, 3,2%, 4%, 4,8%, 4%, 2,4%, 0,8% ва 4,8% бўлиб, бу жавоблар **дистрактор функциясини** бажармаяпти.

Вариантнинг 1 та, 22- саволига (калити Ага 21.77%, Dга 34,68%) **берилган тўғри жавоб фоизи** D дистракторга берилган жавоб фоизидан кам бўлиб, бу тест топшириғида юқори фоизли дистракторга эътибор қаратиш кераклигини англатади. Ушбу тест топшириғини қайта кўриб чиқиш тавсия этилди.

Тўғри жавоб берганлар фоизи таҳлили ушбу вариантда эксперт томонидан белгиланган 1-қийинликдаги 7 та (2-5, 7-9-) топшириқ эталон шкалага асосан 2-қийинликдаги, 1 таси (10-) 2-қийинликдаги топшириқлар эканлигини, 2-қийинликдаги 1 та (18-) топшириқ 1-қийинликдаги топшириқлар эканлигини, 3-қийинликдаги 7 та (23-28-, 30-) топшириқ 2-қийинликдаги топшириқлар эканлигини кўрсатди. Ушбу тест топшириқларининг **қийинлик даражасини** қайта кўриб чиқиш ва тегишли ўзгартиришларни амалга ошириш тавсия этилди.

**3) Она тили ва адабиёти фани бўйича:** Тест топшириқларининг индивидуал баллари тақсимоти нормал тақсимотдан биров фарқ қилади (мода–



8,0 ва ўрта қиймат -12,6 бир-бирига яқин эмас). 54,7% тест топширувчилар 12 балл ва ундан паст балл йиғганлар, 45,3% тест топширувчилар 12 балдан юқори балл йиғганлар. Нормал тақсимот марказига нисбатан ўрта қийматнинг чапга сурилганлиги, саволларнинг қийинлигини ҳам билдирди.

Она тилива адабиёти фани варианты тест топшириқларининг **ишончлилик коэффиценти** 0,762га тенг бўлиб, умуман олганда ушбу вариант тестларининг ишончлигини кўрсатди. Шу билан бирга, ишончлилик ва валидликни ифодаловчи бисериаль корреляция коэффиценти қийматларига қўйилган мезон талаблари бирдай бажарилмайдиган 1, 16, 23 ва 29-тест топшириқларини чиқариб ташлаш тавсия этилди. Айрим кўрсаткичлари 3, 6 ва 28- тест топшириқлари талабга жавоб бермайди, уларни қайта кўриб чиқиш тавсия этилди.

Она тили ва адабиёти фанининг вариандидаги 1-тест топшириғининг В, 5-тест топшириғининг С, 6-тест топшириғининг С, 8-тест топшириғининг В, С, ва 27-тест топшириғининг D-жавобини ўзгартириш ёки тестдан чиқариб ташлаш керак. Чунки, бу жавобларни танлаганлар 2,8%, 4,4%, 3,9%, 3,9%, 3,9% ва 4,4% (5%дан кам) бўлиб, бу эса жавоблар мантиқан нотўғрилиги равшан эканлигини кўрсатади. Яъни, бу жавоблар **дистрактор функциясини бажармаяпти**. Вариантнинг 5 та саволига (14-савол, калити Ага 20.0%, Dга 41,7%; 17-савол, калити Ага 26.1%, Вга 33,9%; 20-савол, калити Ага 22.8%, Dга 45,6%; 27-савол, калити Ага 21.7%, Сга 41,7%; 29-савол, калити Ага 14,4%, Сга 40,0%) берилган тўғри жавоблар фоизи айрим distraкторларга берилган жавоблар фоизидан кам бўлиб, бу тест топшириқларида юқори фоизли distraкторларга эътибор қаратиш кераклигини англатади. Ушбу тест топшириқларини қайта кўриб чиқиш тавсия этилди.

Тўғри жавоб берганлар фоизи таҳлили ушбу вариантда эксперт томонидан белгиланган 1-қийинликдаги 8 та (2-7-, 9-10-) топшириқ эталон шкалага асосан 2-қийинликдаги топшириқлар эканлигини, 2-қийинликдаги 2 та (14-, 20-) топшириқ 3-қийинликдаги топшириқлар эканлигини, 3-қийинликдаги 8 та (21-26-, 28-, 30-) топшириқ 2-қийинликдаги топшириқлар эканлигини кўрсатди. Ушбу тест топшириқларининг **қийинлик даражасини** қайта кўриб чиқиш ва тегишли ўзгартиришларни амалга ошириш тавсия этилди.

**4) Тарих фани бўйича:** Тест топшириқларининг индивидуал баллари тақсимоти нормал тақсимотдан биров фарқ қилади (мода– 10,0 ва ўрта қиймат - 14,8 бир-бирига яқин эмас). 56,0% тест топширувчилар 13балл ва мундан паст балл йиғганлар, 44,0% тест топширувчилар 13 балдан юқори балл йиғганлар.

Тарих фани варианты тест топшириқларининг **ишончлилик коэффиценти** 0,864га тенг бўлиб, ушбу вариант тестларининг ишончлигини кўрсатди. 2 ва 16-топшириқлари ишончлилиги ҳамда валидлиги паст. 3- тест топшириғи айрим кўрсаткичлари бўйича талабга жавоб бермайди, уни эксперт қайта кўриб чиқиши тавсия этилди.

1-тест топшириғининг В, 4- тест топшириғининг D, 9-тест топшириғининг С, D, 11- тест топшириғининг D, 23- тест топшириғининг D-жавобини ўзгартириш ёки тестдан чиқариб ташлаш керак. Чунки, бу жавобларни танлаганлар, мос равишда 4,4%, 4,9%, 4,4%, 3,3%, 2,7% ва 3,8% (5%дан кам)

бўлиб, бу эса жавоблар мантиқан нотўғрилиги равшан эканлигини кўрсатади. Яъни, бу жавоблар **дистрактор функциясини бажармаяпти**. Вариантнинг 2 та саволига (4-савол, калити Ага 30.6%, Вга 40,4%; 10-савол, калити Ага 33.3%, Сга 38,8%) берилган тўғри жавоблар фоизи айрим дистракторларга берилган жавоблар фоизидан кам бўлиб, бу тест топшириқларида юқори фоизли дистракторларга эътибор қаратиш кераклигини англатади. Ушбу тест топшириқларини қайта кўриб чиқиш тавсия этилади.

Тўғри жавоб берганлар фоизи таҳлили ушбу вариантда эксперт томонидан белгиланган 1-қийинликдаги 10 та (1-10-) топшириқ эталон шкалага асосан 2-қийинликдаги топшириқлар эканлигини, 3-қийинликдаги 10 та (21-30-) топшириқ 2-қийинликдаги топшириқлар эканлигини кўрсатди.

**5) Математика фани бўйича:** Тест топшириқларининг индивидуал баллари тақсимоти нормал тақсимотдан биров фарқ қилади (мода– 15,0 ва ўрта қиймат -16,3 бир-бирига яқин эмас). 51,6% тест топширувчилар 15 балл ва ундан паст балл йиғганлар, 48,4% тест топширувчилар 15 балдан юқори балл йиғган. Нормал тақсимот марказига нисбатан ўрта қийматнинг биров ўнгга сурилганлиги, саволларнинг ўртача қийинлигини билдиради.

Математика фани варианты тест топшириқларининг **ишончлилик коэффиценти** 0,844га тенг бўлиб, ушбу вариант тестининг ишончлилигини билдиради.

22, 28, 29 ва 30- топшириқларининг **ишончлилиги ҳамда валидлиги** паст, а кўйилган мезон талаблари бирдай бажарилмайд, уларни тестдан чиқариб ташлаш тавсия этилди. 19- тест топшириғининг айрим кўрсаткичлари талабга жавоб бермайди, уни қайта кўриб чиқиш тавсия этилди.

1-тест топшириғининг В, С, 2-тест топшириғининг В, D, 3-тест топшириғининг D, 7-тест топшириғининг С, 8-тест топшириғининг С, D, 10-тест топшириғининг D, 12-тест топшириғининг С, 14-тест топшириғининг D, 15-тест топшириғининг D-жавобини ўзгартириш ёки тестдан чиқариб ташлаш керак. Чунки, бу жавобларни танлаганлар, мос равишда 0,8%, 3,2%, 3,2%, 3,2%, 4%, 4%, 4% ва 4% (5%дан кам) бўлиб, бу эса жавоблар мантиқан нотўғрилиги равшан эканлигини кўрсатади. Яъни, бу жавоблар **дистрактор функциясини бажармаяпти**. Вариантнинг 3 та саволига (19-савол, калити Ага 25.8%, Сга 40,3%; 20-савол, калити Ага 25.38%, Сга 38,7%; 30-савол, калити Ага 26.6%, Dга 35,5%) берилган тўғри жавоблар фоизи айрим дистракторларга берилган жавоблар фоизидан кам бўлиб, бу тест топшириқларида юқори фоизли дистракторларга эътибор қаратиш кераклигини англатади. Ушбу тест топшириқларини қайта кўриб чиқиш тавсия этилади.

Тўғри жавоб берганлар фоизи таҳлили ушбу вариантда эксперт томонидан белгиланган 1-қийинликдаги 4 та (4-6-, 9-) топшириқ эталон шкалага асосан 2-қийинликдаги топшириқлар эканлигини, 3-қийинликдаги 10 та (21-30-) топшириқ 2-қийинликдаги топшириқлар эканлигини кўрсатди.

**6) Физика фани бўйича тест ишончли, ишончлилик коэффиценти** - 0,716га тенг.

4 та тест топшириғининг *ишончлилик коэффициенти ҳамда валилиги наст*, тестдан чиқариб ташлаш тавсия этилди, 7 та тест топшириғини эксперт қайта кўриб чиқиши тавсия этилди.

